

## TARBIYACHI VA UNING MAKTABGACHA TA'LIM FAOLIYATIDA TUTGAN O'RNI

N.Sh. Gaziyeva

Angren Universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedra o‘qituvchisi

### ANNOTASIYA

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lism tashkilotlari tarbiyachilariga pedagogik – psixologik, matematik, nutq madaniyati, siyosiy madaniyat kabi tushunchalarni o‘rgatishga oid ishlarni rejalashtirish, tashkil etish va o‘tkazishga oid tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** maktabgacha ta'lism, tarbiyachi, padagog, ta'lism-tarbiya, bolalar, pedagogik mahorat, bilim, malaka va ko‘nikma.

### ABSTRACT

In this article, recommendations are given for the preparation, organization and conduct of teaching pedagogy - physics, mathematics, speech culture, political culture, etc. to educators of preschool education society.

**Keywords:** preschool education, educator, pedagogue, education, children, pedagogical skills, knowledge, skills and abilities.

Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim, faxrli va shu bilan birga mas’uliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq va jamiyat oldidagi o‘z mas’uliyatini anglashga, ta'lism – tarbiya vazifalarini hal etishga ijodiy yondashishga, o‘z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi hamkasblarining o‘sishiga ko‘maklashishga yordam beradi. Tarbiyachi o‘zi yashab turgan o‘lka hayotini bilishi, tabiat va jamiyatning rivojlanish qonuniyathalarini tushunishi, ijtimoiy faol bo‘lishi, umumiyl va maktabgacha tarbiya pedagogikasini, bolalar ruhiyati va fiziologiyasini egallashi kerak. Uning pedagogik hodisalarni tahlil qilishga ilmiy nuqtai nazardan yondoshuvi, bolani har tomonlama rivojlanshini muvoffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi. Respublikamiz rahbariyati o‘qituvchilar va tarbiyachilar faoliyatini yuqori baholamoqda. Yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda erishgan yutuqlari uchun o‘qituvchilik va tarbiyachilik ishidagi ijodiy mehnatlari, ilg‘or tajribalarni umumlashtirishda erishgan yutuqlari uchun “Metodist o‘qituvchi”, “Katta o‘qituvchi”, “Katta tarbiyachi”, “Mahoratli tarbiyachi” kabi unvonlar bilan taqdirlanadilar. Ularga respublika miqyosidagi unvonlar beriladi. Tarbiyachining o‘ziga talabchanligi,

o‘zining har bir hatti-harakatini nazorat qilib bora olishi, davlatimiz - maktabgacha ta’lim tashkilotlari oldiga qo‘ygan talablarini muvoffaqiyatli amalga oshirishning garovidir. Bunga quyidagilar kiradi:

- bolaning sog‘ligini saqlash va mustahkamlash;
- aqliy qobiliyatlarini o‘stirish;

jamiyatimizning, milliy madaniyatimizning g‘oyaviy – ahloqiy tamoillariga mos keluvchi e’tiqod va qarashlarni tarkib toptirish;

- ona Vatanga muhabbatni, ijtimoiy faollikni shakllantirish, mas’uliyat, o‘rtoqlik, do‘stlik hissini, halollik, mehnatsevarlikni tarbiyalash.

Albatta yuqorida keltirilgan sifatlarni tarkib toptirish o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash vazifasining hamma tomonlarini qamrab ololmaydi, ammo tarbiyachi shularga asoslanib bolalarni kelajakdagi mustaqil hayotga, mehnatga tayyorlash ishini ma’lum maqsad bilan samaraliroq amalga oshirish mumkin.

Allomalardan Rizouddin ibn Faxriddin aytadilar: - “**Har bir odam va har bir elning sadoqatli bo‘lishiga bosh sabab - ilmdir. Ekinlar uchun yomg‘ir, sug‘orish qanday kerak bo‘lsa, odam bolasi uchun ham ilm shu darajada keraklidir. Bolalarni ilmli, odobli qilib o‘stirish ota-onaning burchidir**”. MTT tarbiyachilari ham bu muqaddas vazifadan chetda emaslar. Agar pedagog bo‘lsangiz, shogirdlaringizning har bir harakatini ko‘z oldingizda tuting, ularni xushmuomilali bo‘lishga o‘rgating, jamiyatning foydali a’zolari qilishga erishing. Bolalarni nojo‘ya so‘z, nojo‘ya xatti – harakatdan to‘xtab qolishga o‘rgatib, o‘zi esa o‘zini to‘xtata olmaydigan, bolalarni do‘stlik, o‘rtoqlikka o‘rgatib, o‘zi esa ular bilan o‘rtoq, do‘st sifatida emas, balki katta rahbar sifatida muomilada bo‘ladigan tarbiyachi yomon tarbiyachidir. Bu o‘rinda dono xalqimizning kamtarlik to‘g‘risidagi quyidagi hikmatini keltirish joizdir.

**Ulug‘lik aylama zinhor, o‘zingni kamtar tut,  
Kimdaki bo‘lsa bu hislat ajab saodatdir.**

Tarbiyachining pedagogik mahorati ko‘p qirralidir. Mahorat kasbiy tayyorgarlikdan, nazariy bilim va ish tajribasini doimo oshirib borishdan, bolalarga bo‘lgan muhabbatdan vujudga keladi.

Tarbiyachi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga tabiat, jamiyat hodisalari, kattalarning mehnati haqida boshlang‘ich bilim va tushunchalar beradi, ularga madaniy ahloq, o‘z tengdoshlari va kattalar bilan madaniyatli munosabatda bo‘lish odatlarini singdiradi, yaxshilik, xaqiqatgo‘ylik,adolat, jasurlik, kamtarinlik, kattalarga mehnat bilan qarash, tabiatga qiziqish, kuzatuvchanlik, o‘simlik va hayvonlarga nisbatan g‘amxo‘rlik bilan qarash, mehnatsevarlik, kattalar mehnati natijalarini asrab – avaylash kabi axloqiy sifatlarni tarbiyalaydi. Xalq san’ati, musiqa, ashula, adabiyot, tasviriy san’atni bilish, san’atga muhabbat - tarbiyachini madaniyatli qiladi, bolalar bilan olib

boradigan ishida yordam beradi. Pedagog kerakli bilim, malaka va ko'nikmalarni ma'lum bir izchillik bilan egallab borsagina, bolarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish ishida yaxshi natijalarga erishadi. Tarbiyachi o'z kasbining mohir ustasi bo'lish uchun maxsus tayyorgarlik ko'rishi kerak. U quyidagi shartlarga amal qilishi lozim:

1. Pedagog yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori ma'lumotli, kerakli bilimlarni egallab, kerakli adabiyotlarni tanlay oladigan, ilmiy adabiyotlar bilan ishlay oladigan, ilg'or tajribali pedagoglarning tajribasini o'rganib, o'z ishiga tadbiq eta oladigan kishi bo'lishi kerak.

2. Pedagog bolalarni kuzata oladigan, ularning xulqi, xatti – harakati sabablarini to'g'ri taxlil qilib, unga ijobiy ta'sir etuvchi vositalarni topa oladigan bo'lishi kerak.

3. Yosh avlodni kerakli bilim, malaka, ko'nikmalardan habardor qilish uchun pedagoglarning nutqi ravon, aniq mantiqiy ixcham bo'lishi lozim. Ta'lim berishda texnikaviy vositalardan samarali foydalana olishi kerak. Bolalar bilim, malaka, ko'nikmalarini yaxshi o'zlashtirib olishlari uchun faollashtiruvchi savollardan foydalanishi lozim.

4. Tarbiyachi o'ziga yuklangan vazifani bajarishi uchun bolalarda o'sha faoliyatga nisbatan qiziqish uyg'ota olishi, ularning diqqatini jalb qilib, faolligini o'stirishi, bolalarning xulqini, xatti-xarakatini haqqoniy baholay olishi kerak.

5. Har bir faoliyat uchun kerakli materialni oldindan tayyorlab qo'yishi, yangi bilimni egallagan bilimlari bilan to'g'ri bog'lay olishi va bolalar egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, ko'nikmalar ularning yosh imkoniyatlariga mos bo'lishi va ularni sekin – asta murakkablashtirib borishi lozim.

6. Kun tartibini to'g'ri tashkil eta bilishi, bolajonlar jamoasiga undagi har bir a'zoni e'tiborga olgan holda rahbarlik qila bilishi, ularning faoliyati (o'quv, o'yin, mehnati) mazmunli bo'lishi uchun kerakli materiallar bilan ta'minlash zarur.

7. Bolalarning ruhiy va jismoniy holatini aqliy bilishi va buni bolalar bilan amalgaloshiriladigan ta'lim – tarbiyaviy ishlarida e'tiborga olishi lozim.

8. Kun davomida olib borgan ta'lim – tarbiya ishini tahlil qila olishi kerakdir.

9. Tarbiyachi ota – onalar bilan muntazam ravishda suhbatlar, uchrashuvlar o'tkazishi, ularni bolalarga ta'lim – tarbiya berish bo'yicha amalga oshirilgan ishning mazmuni, metodlari bilan tanishtirib borishi, oila tarbiyasidagi ijobiy namunalardan o'zining ta'lim – tarbiyaviy ishida foydalanishi lozim.

10. Pegog bolalarga nisbatan hayrihoh munosabatda bo'lishi, har bir bola uchun qulay ruhiy sharoit yaratishi, hafa bo'lsa ovuntira olishi, xursandchilik va xafagarchiligiga sherik bo'la olishi, ayniqsa kichik guruh bolalariga nisbatan muloyim, e'tiborli, qat'iy, sabr – toqatli, yumshoq, ozgina xazilkash, bolaning kuch va imkoniyatlariga ishonch bilan qaraydigan bo'lish kerak. Tarbiyachi bolaga mehr –

oqibat bilan munosabatda bo‘lsa, bolalar bilan uning o‘rtasida mehribonlik, g‘amxo‘rlik munosabatlari yuzaga keladi.

Bolalar tarbiyachining shaxsiy sifatlarini, bilimi, malakasi, bolalarga munosabati, talabchanligini quyidagicha belgilaydilar: kichik guruh (3-4 yoshli) bolalari tarbiyachining ularga bo‘lgan mehr – muhabbatiga qarab (ular meni “Quyoncham” deb chaqiradi, uqlashga yotganimda o‘pib qo‘yadi), o‘rta guruh (4-5 yoshli) bolalar tarbiyachining bolalar hayotini yaxshi tashkil eta olishiga qarab (Lola onamiz bizga hikoyalar o‘qib beradilar, biz bilan birga o‘ynaydilar, shuning uchun men ularni yaxshi ko‘raman), katta guruh (5-6 yoshli) bolalari tarbiyachining hamma bolalarga hayrihohlik bilan yaxshi munosabatda bo‘lishi, yaxshi ishlashiga qarab baho beradilar (ular ko‘p narsani biladi, mashg‘ulotlarda o‘rgatadi). Eng muhim – tarbiyachi bolalarga ishonch bilan qarashi, ularning mehnatsevarligi, mustaqilligi, tashabbuskorligini to‘g‘ri taqdirlashi va mustaqil faoliyat qilishlari uchun imkoniyat yaratishi kerak. Buni bolalar yuqori baholaydilar.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 30 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagisi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari. – T. 2018yil
3. Xasanboeva O.U va boshqalar. «Maktabgacha ta’lim pedagogikasi». T. -2012 yil
4. Yusupova P, “Maktabgacha tarbiya pedagogikasi” -T. 1993 yil
5. Vohidov E.M. “Bolalar psixologiyasi”. - T. 1992 yil